



INTEGRAL USUL YORDAMIDA HUDUDLARDA HAYOT SIFATINI BAHOLASH

*PhD, dotsent, Berdiyev G'ayrat Ibragimovich,
Eshpulatov Dostonbek Boxodir o'g'li,
Malikova Sevinch Telman qizi
Guliston davlat universiteti*

https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a56

Annotatsiya. Maqolada hududlarda aholi turmush darajasini aniqlash nazariy asoslari, metodologiya va vositalari tadqiq etilgan. Hayot sifatini baholashning mavjud usullari mamlakatimiz statistika tizimiga moslashtirilgan, ijtimoiy ko'rsatkichlarga alohida urg'u berilgan mualliflik yondashuvi bilan takomillashtirilgan. Tadqiqot davomida empirik va nazariy, statistik guruhlash, ko'rsatkichlarni normallashtirish, qiyoslash kabi metodologiyalardan foydalanilgan. Natijalar tahlil qilinganda, hududlar orasida va ayniqsa, qishloq joylarda hayot sifatida sezilarli farqlar aniqlangan. Hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda aniqlangan zarur infratuzilma obyektlari miqdorlaridan foydalanish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: qishloq joylar, integral baholash, standartlashtirilgan ko'rsatkichlar.

ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ЖИЗНИ В РЕГИОНАХ КОМПЛЕКСНЫМ МЕТОДОМ

*PhD, доцент Бердиев Гайрат Ибрагимович,
Эшпулатов Достонбек Боходир угли,
Маликова Севинч Тельман кизи
Гулистанский государственный университет*

Аннотация. В статье исследуются теоретические основы, методология и средства определения уровня жизни населения регионов. Существующие методы оценки качества жизни адаптированы к статистической системе нашей страны, усовершенствованы авторским подходом с особым акцентом на социальные показатели. В ходе исследования использовались эмпирические и теоретические методики, такие как статистическая группировка, нормализация показателей, сравнение. При анализе результатов были обнаружены существенные различия в качестве жизни между регионами и особенно в сельской местности. Предлагается использовать объемы объектов необходимой инфраструктуры, определенные при разработке программ регионального развития.

Ключевые слова: сельская местность, комплексная оценка, стандартизация.

ASSESSMENT OF THE QUALITY OF LIFE IN THE REGIONS USING THE INTEGRATED METHOD

*PhD, Associate Professor Berdiev Gayrat Ibragimovich,
Eshpulatov Dostonbek Bokhodir ugli,
Malikova Sevinch Telman kizi
Gulistan State University*

Abstracts. The theoretical basis, methodology and means of determining the standard of living of the population in the regions are researched in the article. The existing methods of assessing the quality of life have been adapted to the statistical system of our country, improved by the author's approach with special emphasis on social indicators. Empirical and theoretical methodologies such as statistical grouping, normalization of indicators, and comparison were used during the research. When the results were analyzed, significant differences in quality of life were found between regions and especially in rural areas. It is proposed to use the amounts of necessary infrastructure objects determined in the development of regional development programs.

Keywords: countryside, integrated assessment, standardization.

Kirish. Respublikamiz hududlarida aholi turmush darajasini tenglashtirish davlat iqtisodiy siyosatining asosiy vazifalaridan biridir. Mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish, ularning kundalik jismoniy, madaniy, ma'naviy ehtiyojlarini

qondirish aholi punktlarida hayot sifatini ta'minlashga bog'liq bo'lib, u atrof-muhit, uy-joy, iqtisodiyotning holati, ijtimoiy ta'minot kabi uy xo'jaliklari hayotini ta'minlashning turli tizimlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida qishloq joylarni muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga ko'maklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan.

Mamlakat aholisining qariyb 17,4 millioni (jami aholining 49,2 foizi) qishloq hududlarida istiqomat qiladi (2022-y.). Mamlakatda qishloq aholisi tug'ilish darajasi yuqori (28 promille) va shunga mos ravishda qishloq joylarida ortiqcha ishchi kuchi mavjud. 25 yoshgacha bo'lgan odamlar aholining 45,5 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 55 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi.

Qishloq hududlarida davlat xizmatlari, shuningdek, transport va axborot-kommunikatsiya aloqalari darajasi pastligicha qolmoqda. Hududiy ehtiyojlarni batafsil baholashga asoslangan va raqobat afzalliklarini hisobga olgan holda kompleks strategiya va dasturlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Xorijiy mamlakatlar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinganida, qishloq hududlarining iqtisodiy taraqqiy etishi qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqligi va shundagina muvaffaqiyatga erishilishi, mahallalarning muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga yo'naltirilgan subsidiyalarga asoslangan islohotlar samarasiz ekanligi kuzatildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining muvofiqlashtiruvchi ostida amalga oshirilayotgan qishloqlarni rivojlantirish dasturlari, asosan, hududiy iqtisodiy nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, yirik shahar markazlari foydasi uchun qishloq aholisining kichik bir qismi – fermerlar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanadigan boshqa tadbirkorlar sektori tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, biroq qishloq mahallalari chetda qolmoqda [1].

Mamlakatda hududlar rivojlanishidagi tengsizliklarni bartaraf etishga qaratilgan mintaqaviy siyosatni olib borish hududlarda aholi turmush darajasini kompleks baholab chiqishni talab etadi. Hozirda respublikamiz hududlarida turmush darajasini baholash bo'yicha tadqiqot ishlari juda oz va aniq metodlar ishlab chiqilmagan. Aholini turmush darajasini o'rganish bo'yicha asosiy manba bo'lib faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan har yili uy xo'jaliklarida tanlanma usulda kuzatuvlar natijalari xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ishida keltirilgan aholi hayot sifatini baholashning integral metodikasi geografik joylashuvi yoki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar hududlarning hayot sifatini tenglashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga va umuman, uning zamonaviy fiziologik va ma'naviy ehtiyojlariga mos keladigan darajaga ko'tarishga imkon beradi.

Metodologiyani qo'llashga misol sifatida maqolada respublika hududlarida hayot sifatini qiyosiy baholash keltirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyoda aholi hayot sifati masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Hayot sifatini tahlil qilishning o'ta qiziqarli usullarini Nobel mukofoti laureatlari bo'lmish G.S.Bekker [2; 3] va J.K.Galbraitning neoklassik nazariyalariga asoslangan noan'anaviy, "asosiy oqim"dan farq qiluvchi tadqiqot ishlarida uchratish mumkin [4].

Axmetsin va boshqalar mintaqaviy dasturlarni shakllantirish kontekstida aholining hayot sifati inson kapitalini rivojlantirishga bog'liqligini ko'rib chiqishga harakat qilishgan [5].

V.N.Bobkov ta'kidlashicha, rasmiy me'yoriy hujjatlarda "hayot sifati" tushunchasiga bir necha xil ta'riflar berilgan. Ularning eng mashhurlaridan biri Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan ishlab chiqilgan: "odamlarning hayotdagi o'z mavqeyini madaniy xususiyatlar va qadriyatlar tizimi va ularning maqsadlari, umidlari, standartlari va tashvishlari bilan bog'liq holda idrok etishi". Butunrossiya turmush darajasi markazi hayot sifatini "individning, ijtimoiy guruhlarining va umuman, jamiyatning rivojlanishi va farovonligini oldindan belgilab beradigan turli xil qobiliyatlari va qondiriladigan ehtiyojlari" sifatida belgilashni taklif qilishgan [6, 16-b].

O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy hamda ijtimoiy ehtiyojlari ko'rsatkichlarini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Unga to'liq ilmiy ta'rif beradigan bo'lsak, bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir [7].

Hayot sifatini tizim sifatida ko'rib chiqsak, uning elementlariga tovarlar (materiallar), xizmatlar, ijtimoiy, ma'naviy ehtiyojlar, xavfsizlik va boshqa parametrlar kiradi.

Bir qator mintaqaviy tadqiqotlar shahar va rekreatsion hududlarga, uy-joy va ishlab chiqarish sharoitlariga nisbatan yerlarni kadastr baholash maqsadlari uchun atrof-muhit sharoitlarini aniqlashga bag'ishlangan; bunda, qoida tariqasida,

atrof-muhitning individual omillari yoki parametrlari hisobga olinadi [8].

I.E.Salyakin va boshqalar hayot qulayligini 3 guruh omillar bo'yicha aniqlashni taklif qilishadi: tabiiy-antropogen, ijtimoiy va tibbiy-ekologik [9]. Birinchi guruh yashash hududini iqlimiy parametrlar, rekreatsion va estetik holat bo'yicha tavsiflaydi. Ikkinchi guruh aholining ijtimoiy turmush sharoitini tavsiflaydi. Mazkur axborot blokida aholini maishiy xizmatlar bilan ta'minlash, mahalliy budjet daromadlari, tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilgan. Uchinchi guruhga tibbiy va ekologik ma'lumotlar kiradi: atrof-muhit holati, aholi salomatligi va mintaqadagi demografik vaziyat.

U.Madaminov hududlarda hayot sifatini baholashda uy xo'jaliklarining iqtisodiy resurslarga egalik qilish darajasini, ularni iste'mol qilishga yoki jamg'arishga, shuningdek, ulardan birini tanlashga qodirligi kabi parametrlarda aniqlanishini ta'kidlaydi [7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi aholi turmush darajasi, uy xo'jaliklari a'zolarining demografik xususiyatlari va ta'lim darajasi, turar-joy sharoitlari, kommunal xizmatlar bilan ta'minlanganligi, xo'jalik faoliyatini yuritish sharoitlari, oilaning umumiy daromadlari va tushumlari manbalarini o'rganadi. Shuningdek, ishlab chiqarish faoliyati, imtiyozlar, noiste'mol xarajatlar va to'lovlar, uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar bilan ta'minlanganligi, uy xo'jaliklarida muqobil energiya manbalarining mavjudligi va foydalanilishini uy xo'jaliklarida AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatlari mavjudligida aniqlaydi [10].

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda "hududdagi aholining hayot sifati" tushunchasining to'laqonli talqini, hayot sifati ko'rsatkichlari reytingining aniq mezonlari mavjud emas. Odatda, aholining istiqomat qiluvchi hudud iqlimiy, ijtimoiy, ekologik sharoitlari aniqlanadi. Bunday tadqiqotlarning nazariy va uslubiy asoslari tibbiy-ijtimoiy geografiya, ekologiya, bioklimatologiya, sotsiologiya, demografiya sohasidagi ishlarda belgilab berilgan [6].

Xorijiy adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, biz hayot sifatini baholashda hududlarda iqtisodiy, ekologiya va xavfsizlik, demografik, aholi salomatligi, yashash sharoitlari, ta'lim va kommunikatsiya kabi 6 toifaga guruhlangan 55 ta statistik ko'rsatkichdan foydalanishni taklif qilamiz. Ushbu usul avvalgi tadqiqotchilar metodlarining takomillashtirilgan va respublikamiz uchun moslashtirilgan bir varianti hisoblanadi. Ya'ni unda, asosan,

aholi ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarga ko'proq e'tibor qaratilgan. Shuningdek, tahlil uchun zarur bo'lgan barcha ko'rsatkichlar Statistika agentligi rasmiy sayti ochiq ma'lumotlaridan olinishi mumkinligi, ushbu usulning ommalashishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada aholining hayot sifatini yaxlit baholash usuli tasvirlangan, uni katta hudud - O'zbekiston Respublikasi uchun qo'llash misoli keltirilgan. Metodologiya talqin qilish va amaliy qo'llashni osonlashtiradigan ko'rsatkichlarni birlashtirish, yaxlit baholash va vizual taqdim etishga asoslangan.

Daslabki ma'lumotlar sifatida 6 toifaga guruhlangan 55 ta asosiy va hisoblangan standart statistik ko'rsatkichlar qo'llanilgan: iqtisodiy, ekologiya va xavfsizlik, demografik, aholi salomatligi, yashash sharoitlari, ta'lim va kommunikatsiya.

Birinchi toifa 13 ta hisoblangan ko'rsatkichdan iborat bo'lib, unga ko'ra hayot sifatining iqtisodiy tarkibiy qismining normallashtirilgan indeksi hisoblanadi: aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol mollari, aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot, hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsuloti, aholining iqtisodiy faollik darajasi, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar va hokazo.

Ikkinchi toifa 6 ta ko'rsatkichdan tashkil topib, unda aholi hayoti xavfsizligi va atrof-muhit ekologik shart-sharoitlari hisoblangan. Ushbu toifaga hududlarda jinoyatlar soni, atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, o'rmon xo'jaligi yerlari kabi ko'rsatkichlar kiritilgan.

Uchinchi toifa 12 ta demografik vaziyatni aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan tashkil topgan: tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi, tug'ilish koeffitsiyenti, hududga ko'chib kelganlar soni, tuzilgan nikohlar soni, erta tug'ruqlar soni va h.k.

To'rtinchi toifa 9 ta sog'liqni saqlash sifatini aniqlovchi ko'rsatkichlardan iborat: go'daklar o'limi koeffitsiyenti, ambulator - poliklinikalar bilan ta'minlanganlik darajasi, onalar o'limi, shifoxonalar soni va h.k.

Beshinchi toifa 7 ta yashash sharoitlarini o'zida mujassamlashtiruvchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi: uy-joylar bilan ta'minlanganlik darajasi, ichimlik suvi, gaz, kanalizatsiya tizimi bilan ta'minlanganligi, uy-joy fondi sifati va shu kabilar.

Oltinchi toifadagi 8 ta ko'rsatkich hududda ta'lim va axborot-kommunikatsiya bilan ta'minlanganligini ifodalaydi: umumta'lim muassasalar soni, internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni, optik tolali aloqa tarmoqlari uzunligi va h.k.

Ularni taqqoslanadigan shaklga keltirish uchun tanlangan ko'rsatkichlar (1) yoki (2) formulalari yordamida normallashtiriladi [11].

$$H_{n_i} = \frac{h_i}{h_{max}}, \quad (1)$$

$$H_{n_i} = 1 - \frac{h_i}{h_{max}} + \frac{h_{min}}{h_{max}}, \quad (2)$$

Bu yerda:

H_{n_i} – i hududning alohida olingan n – ko'rsatkichi standartlashtirilgan indeksi;

h_i – i hududning ko'rsatkichi qiymati;

h_{max} – i hududning umumiy to'plamidagi ko'rsatkichning maksimal qiymati;

h_{min} – i hududning umumiy to'plamidagi ko'rsatkichning minimal qiymati;

Agar ko'rsatkichning qiymati bevosita yoki to'g'ridan to'g'ri mutanosib ravishda hudud reytingiga ijobiy ta'sirni aks ettirsa (qancha yuqori bo'lsa, shuncha yaxshi), u holda (1) formula qo'llaniladi. Agar ko'rsatkich hudud reytingiga teskari proporsional bo'lsa (qancha yuqori bo'lsa, shuncha yomon), u holda (2) formuladan foydalaniladi. Ko'rsatkich bo'lmasa, standartlashtirilgan indeks nolga tenglashtiriladi.

Oddiylashtirilgan indekslarning keyingi yig'indisi hayot sifatining umumiy indeksini aniqlash uchun ishlatiladi.

Ushbu uslubni qo'llash nafaqat hayot sifatining yakuniy umumlashtirilgan indeksini aniqlashga, balki yuqorida ko'rsatilgan alohida toifalardagi ishlarning ham holatini baholashga imkon beradi. Umumlashtirish mintaqaning butun hududi uchun ham, alohida iqtisodiy zonalar uchun ham mumkin bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2000-2022-yillarda butun respublika bo'yicha hayot sifati yaxshilanib borgan bo'lsa-da, hududlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sezilarli farqlar aniqlangan (1-jadval).

2022-yilda hayot sifati reytingining eng past qiymatlari Surxondaryo viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi va poytaxtga yaqin joylashuviga qaramasdan, Sirdaryo viloyatida kuzatilgan. Shuningdek, Jizzax viloyati ham poytaxtga nisbatan yaqin va turistik hudud bo'lsa-da, 27,87 ball bilan Qoraqalpog'iston Respublikasidan (27,74) katta farq qilmagan.

Shu bilan birga, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari ham mos ravishda 28,99 va 28,27 ballar bilan respublika o'rtacha ko'rsatkichi – 30,42 ball ko'rsatkichidan past bo'lgan.

Navoiy, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Namangan viloyatlarida hayot sifati reytingi o'rtacha darajada 30-31,5 interval oralig'ida bo'lgan.

1-jadval

Hududlarda hayot sifati reytingi, ballarda

Yillar	2000	2005	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2022	2022-yil 2000-yilga nisbatan, %da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,56	12,76	19,67	28,32	27,01	26,62	27,50	27,33	26,60	27,74	191%
Andijon	19,13	18,90	25,06	30,56	30,23	30,31	30,11	31,48	29,36	31,76	166%
Buxoro	16,80	16,80	23,43	29,38	29,46	29,02	29,12	29,29	28,43	30,24	180%
Jizzax	14,37	13,87	20,92	26,61	26,06	25,74	26,09	26,43	26,04	27,87	194%
Qashqadaryo	18,58	17,57	24,90	29,40	29,95	29,12	29,34	29,77	27,14	28,99	156%
Navoiy	15,98	15,88	24,75	29,71	30,90	30,21	30,56	31,85	30,16	31,51	197%
Namangan	16,22	15,38	21,88	29,26	29,48	28,34	28,58	29,99	28,36	30,08	185%
Samarqand	19,30	18,38	25,98	30,12	29,65	29,15	29,06	29,91	28,95	31,16	161%
Surxondaryo	16,52	16,41	23,44	28,45	28,01	28,05	27,80	27,58	25,25	27,72	168%
Sirdaryo	14,25	12,64	21,37	26,52	25,74	25,57	25,10	26,45	24,52	26,75	188%
Toshkent	18,75	18,06	23,46	29,08	29,28	29,32	29,34	30,38	29,11	31,50	168%
Farg'ona	19,69	18,30	25,52	30,18	29,59	29,37	30,38	31,56	28,46	31,52	160%
Xorazm	15,17	13,46	21,40	26,40	25,95	26,24	26,70	27,52	25,80	28,17	186%
Toshkent sh.	20,24	18,98	27,68	35,73	37,02	38,43	38,23	40,63	40,05	40,82	202%
Respublika hayot sifati reytingi	17,11	16,24	23,53	29,26	29,16	28,96	29,14	30,01	28,44	30,42	178%

Manba: muallif ishlanmasi.

Hayot sifati reytingining eng yuqori hududlari Toshkent shahri, Andijon va Farg'ona viloyatlari bo'lib qolmoqda. Ushbu hududlar bir qator ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarda qolgan hududlardan sezilarli darajada oldinga o'tib ketgan. Xususan, aholi jon boshiga YAIM, investitsiyalar, sog'liqni saqlash tizimi sifati va boshqa ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajalari shular jumlasidandir.

Hayot sifati reytingi past hududlar, xususan, Sirdaryo viloyati Toshkent shahridan 14 ballga va Andijon viloyatidan 5 ballga past bo'lgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida ham vaziyat o'xshash. Ushbu hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi tengsizliklarni bartaraf etish alohida mintaqaviy siyosat olib borishni talab etadi.

Alohida toifadagi ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, iqtisodiy tarkibiy qism bo'yicha kutilgandek, Toshkent shahri qolgan barcha hududlardan deyarli 2 barobar katta – 10,18 ball reyting ko'rsatkichiga ega bo'lgan. Faqat Navoiy viloyati unda jahondagi eng katta oltin konlaridan biri Muruntov bo'lgani bois ham 8,31 ballga erishgan.


Iqtisodiy tarkibiy qismga ko'ra eng og'ir ahvol Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlarida bo'lib, mos ravishda 4,62 va 4,85 ballarni tashkil etgan. O'rtacha darajadan faqat Buxoro viloyati (6,33) va Toshkent viloyati (7,17) yuqori.

Ekologiya va xavfsizlik sharoitlari bo'yicha eng kam ballar, kutilganidek, Toshkent shahri (1,64) va Toshkent viloyati (1,52), Farg'ona viloyatlariga (1,97) to'g'ri keldi. Yuqori ballarni Jizzax viloyati (3,95), Navoiy viloyati (3,83) va Xorazm viloyati (3,99) olgan.

Sog'liqni saqlash tizimi sifati bo'yicha eng past ballar Sirdaryo viloyatiga (4,66) va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (5) to'g'ri kelgan. Eng yuqori ballar Toshkent shahri (7,95) va Farg'ona viloyatida (7,72) bo'lgan. Andijon, Buxoro, Navoiy, Namangan, Samarqand, Toshkent viloyatlarida reyting o'rtachadan (6) yuqori bo'lgan.

Qishloq ijtimoiy infratuzilmasining rivojlantirish darajasi bo'yicha hududlarni "Qishloq, o'rmon va baliqchilik" faoliyat turlarida yalpi qo'shilgan qiymat darajasiga nisbatan guruhlash 2-jadvalda keltirilgan.

Jadval ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, har 1000 qishloq aholisiga o'rtacha 0,05 ta qishloq oilaviy poliklinikalari, 8,7 ta savdo do'konlari, 0,8 ta jamoat oshxonalari, 0,1 ta xizmat ko'rsatish obyektlari to'g'ri keladi. Hududlarning differensiallashuvi – aholi punktlarining gaz bilan ta'minlanganligi bo'yicha 12,7 baravar, qishloq oilaviy poliklinikalari bo'yicha 2 barobar. Hududlarning zarur ijtimoiy infratuzilma obyektlari bilan ta'minlanganligi darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar ish o'rinlari bilan ta'minlangan qishloq aholi punktlarini rivojlantirishni davlat tomonidan ustuvor qo'llab-quvvatlash bilan birga minimal ijtimoiy standartlarni asoslash uchun ishlatilishi mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-maydagi "2022-2026-yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida viloyatda 2030-yilgacha sport infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlari parametrlari uning respublikada boshqa viloyatlar darajasiga yetishini ta'minlamaydi [12].



1-rasm. Inson taraqqiyoti indeksi va hisoblangan hayot sifati reytingini solishtirish [13]

MINTAQA IQTISODIYOTI

2-jadval

Hududlarni "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" faoliyat turi bo'yicha yaratilgan YaQQga nisbatan guruhlash, 1000 kishiga

Guruh	Hududlar	Oilaviy shifokor punktlari soni	Sport inshootlari soni	Do'konlar soni	Jamoat oshxonalarini o'rindiqlari soni	Xizmat ko'rsatish obyektlari soni	Aholi punktlarining ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi	Aholi punktlarining gaz bilan ta'minlanganligi	Umumta'lim muassasalari soni	Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilar soni
1-guruh	Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,02	0,98	4,58	13,33	0,02	0,28	0,33	0,26	10,68
	Farg'ona viloyati	0,02	0,82	4,27	11,88	0,11	0,27	0,08	0,14	7,59
	Namangan viloyati	0,03	0,51	3,27	15,56	0,03	0,10	0,08	0,13	5,83
2-guruh	Qashqadaryo viloyati	0,03	1,01	3,70	10,02	0,02	0,28	0,04	0,24	10,81
	Surxondaryo viloyati	0,02	1,16	3,31	11,87	0,03	0,29	0,08	0,23	10,26
	Andijon viloyati	0,03	0,62	3,16	26,85	0,07	0,14	0,04	0,14	6,76
	Toshkent viloyati	0,02	1,01	6,11	21,20	0,05	0,24	0,13	0,19	6,67
	Samarqand viloyati	0,03	0,88	4,88	21,94	0,07	0,47	0,39	0,23	9,84
3-guruh	Xorazm viloyati	0,01	1,40	4,77	12,95	0,07	0,25	0,16	0,20	10,83
	Sirdaryo viloyati	0,05	0,34	5,57	16,14	0,04	0,30	0,30	0,26	9,81
4-guruh	Buxoro viloyati	0,05	1,05	5,90	17,06	0,04	0,51	0,46	0,18	9,07
	Jizzax viloyati	0,04	1,32	4,53	13,97	0,04	0,26	0,12	0,28	10,06
	Navoiy viloyati	0,07	1,00	7,21	27,33	0,08	0,51	0,28	0,25	10,70
Hududlarda ijtimoiy infratuzilma obyektlari bilan ta'minlanganlikni o'rtacha darajaga yetkazish uchun barpo etilishi zarur bo'lgan obyektlar soni										
1-guruh	Qoraqalpog'iston Respublikasi	53	262	2 498	11 781	57	288			
	Farg'ona viloyati	115	1 149	6 167	28 927		622	797	366	8 991
	Namangan viloyati	59	1 739	7 491	11 165	55	940	612	328	11 791
2-guruh	Qashqadaryo viloyati	76	355	7 258	31 454	98	513	847		
	Surxondaryo viloyati	89		6 883	20 334	54	385	559	23	
	Andijon viloyati	65	1 593	8 661			916	804	323	10 129
	Toshkent viloyati	89	328				575	479	153	9 743
3-guruh	Samarqand viloyati	66	963	3 944					45	407
	Xorazm viloyati	72		2 102	12 301		341	246	79	
4-guruh	Sirdaryo viloyati		669	264	2 853	8	113			115
	Buxoro viloyati		137		4 653	21			110	1 698
	Jizzax viloyati	12		1 898	7 734	11	234	233		
	Navoiy viloyati		119					11		

Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (2021-yil).

Birinchi navbatda, kommunal tarmoqlarni almashtirish qishloq joylarida mintaqaviy guruh darajasiga qadar amalga oshirilishi kerak. Qishloqlarning ijtimoiy infratuzilma obyektlari bilan ta'minlanganligi darajasi 2 va 3-guruh hududlarida eng past. Ushbu guruhlariga Xorazm, Sirdaryo, Surxondaryo, Samarqand, Andijon, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari kiradi.

Ijtimoiy samaradorlik nuqtayi nazaridan qishloq aholisi ko'proq yashaydigan, aholi jon boshiga YaHM va YaQQning yetarli darajada yuqori bo'lgan 2-guruh hududlariga ustuvor ahamiyat berilishi tegishli investitsiyalarni jalb etish imkonini beradi.

Biz hisoblab chiqqan hayot sifati reyning ballarini jahon mamlakatlari turmush sifati darajasini o'lchash uchun ishlatiladigan Inson taraqqiyot indeksi bilan solishtirish o'xshash natijalarni beradi (1-rasm). 1-rasmda xalqaro va xususiy ko'rsatkichlarni qiyoslash maqsadida (Z – scores) standartlashtirilib, bir xil masshtabga keltirib olingan.

Hududlarni hayot sifati reytingi o'sish sur'atlari bo'yicha guruhlash respublikada hududiy tengsizliklarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralar natijalarini ko'rishimizga yana ko'proq imkoniyat beradi (3 - jadval). Hayot sifati reytingi past hududlar Sirdaryo, Jizzax va Qoraqalpog'iston Respublikalarida tengsizlikni bartaraf etish maqsadida faol choralar ko'rilayotgani natijasida ushbu guruh hududlarida vaziyat eng baland sur'atlarda yaxshilanmoqda. Guruhdagi Toshkent shahri va Navoiy viloyatlari o'z iqtisodiy salohiyatlaridan kelib chiqib rivojlanmoqda, deyish mumkin. Biroq shu hududlar kabi sharoitdagi Surxondaryo viloyatida hayot sifati yaxshilanib borishi sustroq kechmoqda. Bu o'zi reytingi past hududning keyingi yillarda yanada ortda qolib ketishiga olib kelishi mumkin. 1-guruhdagi qolgan hududlarning alohida reyting ko'rsatkichlari o'rtachadan yuqori bo'lib, joriy o'sish sur'atlari normal hisoblanadi.

3-jadval

Hayot sifati reytingi o'sish sur'atlari bo'yicha hududlarni guruhlash

Guruhlar	O'sish sur'atlari chegaralari, %	Guruhda hududlar soni	Hayot sifati, ballar						Hududlar	
			2000	2006	2009	2012	2015	2018		2022
1	103 gacha	6	18,66	17,75	19,75	26,38	29,63	29,33	30,44	Qashqadaryo Farg'ona Samarqand Andijon Surxondaryo Toshkent
2	103 dan 103,4 gacha	3	16,06	15,02	17,79	24,28	28,34	28,13	29,49	Buxoro Namangan Xorazm
3	103,4 dan yuqori	5	15,87	14,86	17,62	24,74	29,37	29,49	30,93	Sirdaryo Qoraqalpog'iston Respublikasi Jizzax Navoiy Toshkent sh.
	Jami:	14	50,60	47,64	55,16	75,41	87,35	86,96	90,87	

O'rtacha sur'atlarda 2-guruh hududlari rivojlanib borayotgan bo'lib, ushbu viloyatlarda reyting ballari o'rtacha ballarga yaqin bo'lgan.

Shunday qilib, mintaqaviy iqtisodiy siyosatni olib borishda Surxondaryo viloyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozim. Bundan tashqari 2-guruh hududlarining reyting o'sish sur'atlarini 3-guruhga yetkazish asosiy maqsadlardan bo'lishi lozim.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, so'nggi 20 yillikda respublikamiz barcha hududlarida hayot sifati yaxshilanib borgan. Tadqiqot ishida qo'llanilgan metodologiyaning natijalari ishonchligini xalqaro mos Inson taraqqiyoti indeksi bilan solishtirish tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ba'zi hududlarda turmush darajasida keskin farqlar aniqlangan. Xususan, respublikada, Toshkent shahrini hisobga olmaganda, eng yuqori turmush darajasi Andijon viloyatida va eng past daraja Sirdaryo viloyatida

kuzatilgan. Surxondaryo viloyati boshqa hududlarga nisbatan bir qator ko'rsatkichlarda ortda qolmoqda. Shunga qaramasdan, viloyatda hayot sifati yaxshilanishi sekin sur'atlarda kechmoqda.

Sirdaryo viloyati, Jizzax viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikalarida hayot sifati yuqori sur'atlarda o'sib borayotgan bo'lsa-da, o'rtachadan past darajada qolmoqda.

Ushbu usul bo'yicha tuzilgan ma'lumotlar bazasi aholi turmush sifatining ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishini tenglashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun foydalanishga tayyor vositadir. Bundan tashqari ma'lumotlar bazasi yangilanishi va boshqaruv nazorat organlari tomonidan davlat hokimiyati organlari faoliyati

samaradorligini baholash uchun ishlatilishi mumkin, xususan, har yili alohida hududlar bo'yicha aholining hayot sifati reytingini aniqlashda foydalanish mumkin.

Aytish joizki, hududlarda hayot sifatini baholashda oxirgi 22 yillik ma'lumotlardan foydalanish katta hajmdagi axborotlarni to'plash va qayta ishlash, hisob-kitob ishlarini talab qiladi. Oxirgi 22 yillar uchun olingan reyting ballarining o'rtacha qiymatlari esa so'nggi yilgidan sezilarli farq qiladi. Shunday bo'lsa-da, hayot sifati reytingi yillar bo'yicha dinamikasi foydali tahlillarni olishga imkon beradi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
2. Becker G.S. *Habits, Addictions, and Traditions.* // *Kyklos.* 1992. Vol. 45. № 3.
3. Becker G.S. *Accounting for the Tastes.* – Cambridge: Harvard University Press, 1996.
4. Galbraith J.K. *Economics and the public purpose.* Houghton. Mifflin Company. Boston, 1973.
5. Akhmetshin E.M., Sharafutdinov R.I., Gerasimov V.O., Dmitrieva I.S., Puryaev A.S., Ivanov E.A., & Miheeva N.M. *Research of human capital and its potential management on the example of regions of the Russian Federation.* // *Journal of Entrepreneurship Education.* 2018. No. 21 (2).
6. Бобков В.Н. *Методологический подход Всероссийского центра уровня жизни к изучению и оценке качества и уровня жизни населения.* // *Вестник ВГУ. Серия экономика и управления.* 2009. № 2.
7. Madaminov U. *Aholi turmush darajasi qanday baholanadi? Saytda mavjud:* <https://yuz.uz/uz/news/aholi-turmush-darajasi-qanday-baholanadi> (tashrif vaqti: 18.03.2023-y).
8. Кулагина Е.Ю., Краснощеков А.Н., Трифонова Т.А. *Оценка комфортности биоклиматических условий региона с применением ГИС-технологий.* // *ИнтерКарто-ИнтерГИС-18: Устойчивое развитие территорий.* / Теория ГИС и практический опыт: Мат-лы междунар. конф. Смоленск, 26-28 июня 2012. Смоленск.
9. Сялякин И.Е., Краснощеков А.Н., Трифонова Т.А. *Исследование комфортности проживания населения на территории региона на примере Владимирской области.* // *Известия Самарского научного центра РАН.* 2010. Т. 12. № 1(7).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi axborot xizmati. "Aholi turmush darajasini baholashda tanlanma kuzatuvlarning o'rni" mavzusida matbuot anjumani. Saytda mavjud: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/qomita-yangiliklar-2019/1305-7180-aholi-turmush-darajasini-baholashda-tanlanma-kuzatuvlarning-o-rni333> (tashrif vaqti: 18.03.2023-y).
11. Коваленко Е.Г., Автайкина Е.В. *Анализ устойчивого социально-экономического развития сельских территорий Республики Мордовии.* // *Системное управление : электрон. науч. период. изд.* 2013, выпуск 1 (19) // <http://sisupr.mrsu.ru>.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-maydagi "2022-2026-yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
13. *Human Development Repots 2022.* Saytda mavjud: <https://hdr.undp.org/data-center/human-development-index#/indicies/HDI> (tashrif vaqti: 18.03.2022-y).